



BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA TADQIQOT MAVZULARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Ruzimova I.X.

Urganch davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: pedagogik, tadqiqot, muammo, yechim, mavzu, dolzarblik, tahlil, yangilik
Ключевые слова: педагогическое, исследование, проблема, решение, тема, актуальность, анализ, новизна.

Key words: pedagogical, research, problem, solution, topic, relevance, analysis, novelty

Pedagogik tadqiqot murakkab jarayon, chunki ta’lim-tarbiyaning dialektik xususiyati, serqirra ekanligi izlanuvchidan aniq muammoni tanlashni taqozo etadi. Pedagogik jarayon hali yetarli o‘rganilmagan dolzarb muammodir. Jamiyatni, fanlarni, ishlab-chiqarishni, texnikani tez taraqqiyoti, ta’lim-tarbiyaning davr talabi, mavjud shart-sharoitga mos qonuniyati va yosh avlodni hayotga tayyorlash zarurati pedagogik muammolar tadqiqotlarni ilmiy-amaliy ahamiyatidan dalolat beradi. Pedagogik muammo ta’lim-tarbiya tizimining yechilmagan qirralari masalalaridir. Ana shu ta’lim-tarbiya tizimining kompleks ko‘lamidan, o‘z imkoniyatiga mos muammoni, tadqiqot mavzusi sifatida tanlash, ilmiy izlanishning dastlabki qadamidir. Chunki ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, jamiyat iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot omilidir.

Tadqiqot muammosini tanlash, chuqur mulohaza, intellektual tahlil, hayotiy tajribaga asoslanadi. XXI asrda ta’lim-tarbiyani istiqbolli yo‘nalish i, barkamol avlod, barkamol shaxs modeli uzluksiz ta’lim-tarbiyani modernizatsiyalar, pedagogik merosni o‘rganish, jahonda inson, insoniylik, muammosi pedagogik tadqiqot predmetidir. Globallashuv sharoitida jahonda muayyan muammoni hal etilgani darajasini aniqlash; insonni o‘rganadigan fanlarda ushbu muammoning tadqiq etilganini tahlili; milliy mentalitet, qadriyatlar xususiyati; muammoni tarixiy, mantiqiy mohiyati muammoni aniqlash mezonidir. Muammoni tanlash, tadqiqot maqsadini yo‘nalishlarini belgilashda muhim o‘rin tutadi.[1, 68] Pedagogik tadqiqotning informatsion, konseptual, eksperimental, kvalametric, metodik, tashkiliy, tarixiy, yo‘nalishlari mavjud. Informatsion tadqiqot ilg‘or pedagogik



tadqiqotlarni o'rganish umumlashtirish fanda muhim o'rin tutadi. Ta'lim-tarbiya umum xalq ishi: ko'p sonli ijodkor pedagoglar, ota-onalar, jamoatchilik, matbuot, radiotelevideeniya xodimlari faoliyatining tarkibiy qismi. Pedagogik qonuniyatlar, tamoyillar, asosida ilg'or tajribalarni umumlashtirish tahlil, targ'ib qilish, jamiyatni pedagoglashtirish imkoniyatini oshiradi. Informatsion tadqiqotda obyektivlik, mantiqiylik, badiiylik, hayotiylik, va pedagogika-psixologiya qonuniyatlar ommaviyligi muhim o'rin tutadi.[2, 14]

Ilmiy-pedagogik tadqiqot konseptual yo'nalish metodologik xususiyatga ega. Ta'lim-tarbiya jarayonining metodologik muammosini o'rganish pedagogikaning nazariyasini rivojlantiradi. Nazariy va metodologik tadqiqotlar ilmiy asoslangan konsepsiyalarda umumlashadi. Konseptual tadqiqotlar jahon ilm-fan yutuqlari, ilg'or tajribalar, tarixiy taraqqiyot qonuniyatlariga asoslanib istiqbolli yo'nalishlarni belgilab beradi. Masalan, O'zbekistonda "Kadrlar tayyorlash Milliy modeli" jahon tajribalari asosida yaratildi, uzluksiz ta'limni istiqbolini belgilab berdi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, texnologik yondashuv, qonuniyatli yondashuv, ta'lim-tarbiyani insonparvarlashtirish, demokratlashtirish va uzviy modernizatsiyalash dolzarb muammolardir. Pedagogik muammolar asosida muayyan-tadqiqot mavzusi tanlanadi. Mavzuga doir aniq muammolar aniqlanadi, tadqiqotchi o'ziga quyidagi savolni qo'yilishi va qirq o'lchab- bir qarorga kelishi maqsadga muvofiq:[3, 45]

Fanning qaysi sohasi, yo'nalishi meni qiziqtiradi?

Qaysi muammoni metodologik, umumiy ta'lim, maktabgacha pedagogika, kasb-hunar ta'limi, oliy maktab pedagogikasi va hokazolarni hal eta olaman?

Qaysi yoshdagilar ta'lim-tarbiyani hal eta olaman?

Tarbiyalash o'z- o'zini tarbiyalash, didaktika, maktabshunoslikning qaysi yo'nalishi mening imkoniyatimga mos?

Qaysi muammolar dolzarb?

Tanlangan muammoga asosan mavzu shakllantiriladi. Mavzuning har bir kategoriyasi (tushuncha so'zi) muammoni ifodalashi lozim. Mavzu aniq, ixcham, ilmiy shaklda ifodalanishi shart. Masalan, ko'p holatlarda u yoki bu muammoni "pedagogik asoslari" shaklida qo'llanilish holatlari mavjud, "pedagogik asos" butun fanning nazariyasi va amaliyotidir. Shuning uchun yaratish «ishlab chiqarish», «takomillashtirish», «rivojlantirish», «samaradorlik», «informatsiya», «modernizatsiyalash», «model», «tizim» kategoriyalari ilmiylik darajasini bildiradi. Mavzuni tanlash asosan tadqiqotchining irodasi, ilhomi asosida bo'ladi. [4, 120] Lekin mavzu tanlashda ijtimoiy buyurtma dolzarb ilmiy loyihalar asosida ham tavsiya etiladi. Mavzuni tanlashda ilmiy markazlar muvofiqlashtirish kengash muhokamasi, yetakchi mutaxassislar maslahati ham muhim ahamiyatga ega. Chunki, muammo o'rganilgan, tadqiq etilgan, takror bo'lmasligini shart. Pedagogik



tadqiqot muammosini tanlash, mazmuni shakllantirish ilmiy faoliyatning muhim bosqichidir. Birinchi bobda pedagogika ayrim dolzarb muammolari keltirilgan.

Pedagogik tadqiqotlar muammosi. Mavzuni tanlash va asoslash jarayoni ilmiy tadqiqot ishini dastlabki bosqichi hisoblanadi. Bunda asosan soha, yoʻnalish va undagi mavzuni tanlash amalga oshiriladi. Mavzu tanlashda tadqiqotchining sohaga, yoʻnalishga qiziqishi va bu boradagi ilmiy salohiyati eʼtiborga olinadi. Bunda tadqiqotchining oʻzi shugʻullanmoqchi boʻlgan sohaning yutuq va kamchiliklarini mustaqil oʻrganish orqali mavzuni tanlash imkoniyatiga ega boʻladi. Mavzu tanlanayotganda shugʻullanishi kerak boʻlgan sohaning yirik — istiqbolli mutaxassislari maslahatiga amal qilinsa yaxshi samaralar beradi. Mavzuni asoslashda esa tanlangan mavzu boʻyicha qilingan ishlar atroflicha oʻrganiladi, tahlil qilinadi, soha boʻyicha yutuq va kamchiliklar tahlil qilinadi va muammoning qoʻyilishiga zamin tayyorlanadi.

Muammoning qoʻyilishi bevosita mavzuni dolzarbligini asoslashning davomi hisoblanadi va u soha boʻyicha yutuq, kamchiliklar tahlili natijasi asosida ifodalanadi. Bu tadqiq qilinishi kerak boʻlgan muammoni izlash bilan bogʻliq boʻlib qolmasdan, ilmiy tadqiqotning vazifalarini (hal qilinadigan masalalarni) aniq va ravon ifodalashini ham oʻz ichiga oladi. Muammoning qoʻyilishida maʼlumot yigʻish va ularni qayta ishlashga katta eʼtibor beriladi. Undagi nazariy usullar va texnik yechimlar, oʻxshash muammolarini yechimini topish vositalari, tadqiqotga yaqin sohadagi tadqiqotlar natijalari haqidagi maʼlumotlar va boshqa maxsus maʼlumotlar yigʻish tadqiqot boshlangunga qadar emas, balki butun tadqiqot davomida amalga oshiriladi.[5, 135] Dastlabki faraz, yaʼni ishchi faraz aniq ifodalangan tadqiqot muammosiga va yigʻilgan dastlabki materialning tanqidiy tahlili natijasiga tayangan holda shakllantiriladi. U bir necha variantda ifodalanadi va ularning ichidan muammo qoʻyilishiga mosi tanlab olinadi. Ishchi farazni ifodalashning turli usullari bor. Ular, asosan tadqiqot muammosini aniqlashda va mavzu dolzarbligini asoslashda nazariy maʼlumotlarga asoslanadi va tadqiqot manbasini chuqurroq oʻrganish imkonini beradi. Ishchi farazni shakllantirishda anketa soʻrovlari, suhbatlari, mutaxassis-olimlar bilan maslahatlar va ayrim hollarda dastlabki tajriba-sinov ishlari ham oʻtkaziladi. Yangilik, jamiyat hayoti bilan bogʻliqlik, yetilgan ziddiyat, aniqlik Tipik kamchiliklari: mavzuning asossiz kengligi, global tusdagi mavzu ifodalanishida mavhumlik. Masalan, agar «Davlat boshqaruvi» mavzusi tanlanadigan boʻlsa, unda bunday mavzu ilmiy ish uchun yaramaydi, haddan ortiq mavhum boʻladi. Birmuncha torroq mavzuni tanlagan maʼqulroq.

Muammolilik «Maktabgacha taʼlim – pedagogik fan sifatida» mavzusi oʻquv ishi (referat, kurs yoki diplom ishi) uchun boʻlishi mumkin, lekin uning nomida muammo yoʻq. Hatto oʻquv maqsadlari uchun ham qandaydir aniq bir jihatni

olgan yaxshi: « Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni o'yin vositasida maktabga tayyorlash». Bunda muammo yaqqol ko'rinib turibdi: Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktabga qanday tayyorlashimiz ko'rinib turibdi. Ilmiy ish uchun undan ham aniqroq mavzuni tanlagan ma'qul: « Maktabgacha yoshidagi bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik tizimi». Aniqlangan mavzuga muvofiq ravishda aniq-ravshan ifodalangan maqsad shakllantiriladi. Tushunchalarning aniqligi Masalan, «rivojlanish masalalari», «tarbiyaning pasayishi», «muammo falsafasi», «muammoning izohlanishi» kabi va boshqa ikki xil ma'noli va noaniq ifodalarni ishlatmaslik kerak.

Tadqiqot usullarining tadqiqot mavzulari bilan o'xshashligi: «tahlil», «jarayonni modellashtirish». Ilmiy tadqiqot mavzusi jiddiy ravishda uning asosiy natijasi bilan aniqlanadi! «Tafakkur madaniyati: ilmiy-pedagogik tadqiqotning metodologik muammosi» nomli fundamental monografiyasida professor Yu.A.Petrov ta'kidlaydi: «Savol tug'iladi: ilmiy ishning mundarijasiga mos sarlavhasini, yakuniy holatda esa - uning asosiy natijasini qanday tanlash mumkin? Buning uchun ish nimadan tashkil topganini aniq tasavvur qilib, uning asosiy natijasi nima ekanligini anglash kerak».[6, 70] Misol uchun tadqiqotning mavzusi «Ta'lim va fan internatsionallashuvi sharoitida amaliy-pedagogik tadqiqotlar sifatining invariant mezonlari» tarzida bo'lsa, asosiy natija - «Ta'lim sohasidagi xalqaro ilmiy tadqiqotlar sifatining invariant mezonlari» ko'rinishida aks etadi.

Tadqiqot mavzusi tasdiqlanguncha tadqiqotning muammoli maydonini aniqlashtirib olish, muammoni identifikatsiyalash va aniqlashtirish, uning fan va amaliyot uchun dolzarbligini asoslash - tadqiqot mavzusini shakllantirish kerak. Ushbu barcha pedagogik jarayonlarni tadqiqotchi mustaqil amalga oshirishi lozim! Balki olimlar, ilmiy maslahatchilar “mavzuni” emas, dissertatsiyalarning “ishchi nomini” tasdiqlashar, sababi ushbu nomlar “ilmiy tadqiqot mavzusiga” aylangunga qadar ko'p bora aniqlashtiriladi? (Hech kimga sir emas: bugun hatto himoyaga tavsiya etilgan dissertatsiyalarning mavzulari ham himoyadan bir necha kun oldin keskin o'zgarishga uchraydi - ta'kid X.ga tegishli).[6, 95] Bu jihatni R.Dey obrazli tasvirlab bergani: «Ish yozilgunga qadar sarlavhani o'ylab topish, hali bola tug'ilmasidan avval unga ism berish bilan barobar: sababi siz o'g'il bolaga adashib qizning ismini berib qo'yishingiz mumkin».

Pedagogik tadqiqotlar o'rganish, o'qitish va ta'lim jarayonini tahlil qilish uchun amaliy va nazariy usullar bilan muvofiq shakllantiriladi. Quyidagi pedagogik tadqiqot mavzulari shakllantirilishi mumkin:

1. Ta'lim texnologiyalari: Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar, dasturlar va vositalar haqida tadqiqotlar olib borish.

2. O'quvchilarning motivatsiyasi: O'quvchilar motivatsiyasini oshirish, ta'limga qiziqishini yaratish va o'rganishni yo'lga qo'yish bo'yicha tadqiqotlar.



3. O'quvchilarning ma'lumot darajasini oshirish: O'quvchilarning ma'lumot darajasini oshirish uchun qanday usullar va darsliklar ishlatilishi haqida tadqiqotlar;

4. O'qituvchilarning tayyorlashi: O'qituvchilarning professional rivojlanishini ta'minlash va ularning ta'lim jarayonida yaxshi natijalar olishi uchun kerak bo'lgan tayyorlash bo'yicha tadqiqotlar;

5. Ta'lim sifatini baholash: Ta'lim jarayonining sifatini, o'quvchilarning ma'lumotlarni olish va tushunish darajasini baholash bo'yicha tadqiqotlar;

6. Ta'lim metodikalari: O'quv jarayonida qo'llaniladigan metodikalar, usullar va dasturlar haqida tadqiqotlar olib borish;

7. O'quvchilar bilim darajasini sinovdan o'tkazish: O'quvchilarning o'rganilgan ma'lumotlarni tushunish darajasini sinovdan o'tkazib chiqish va baholash bo'yicha tadqiqotlar.

Bu kabi pedagogik tadqiqot mavzulari o'quv jarayonini tahlil qilish, yangi texnologiyalar va usullarni integratsiyalash, ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning ma'lumot darajasini oshirish uchun muhimdir.

Adabiyotlar:

1. Xodjayev B., Choriyev A., Saliyeva Z. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. // B. Xodjayev va B. Toshkent: Iqtisodiyot dunyosi nashriyoti, 2018. - 190 bet.

2. Белухин Д.А. Основы личносно ориентированной педагогики. -Воронеж: МОДЭК, 2005. - 286 с.

3. Борытко, Н.М. Методология и методы психолого-педагогических исследований: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / Н.М. Борытко, А.В. Моложавенко, И.А. Соловцова. - М. : Академия, 2008. – 320 с.

4. Краевский, В.В. Методология педагогического исследования: пособ. для педагога-исследователя / В.В. Краевский. - Самара: Изд-во СамГПИ, 1994. - 165 с.

5. Герасимов, И.Г. Научное исследование / И.Г. Герасимов. - Москва: Политиздат, 1972.-279 с.

6. Герасимов, И.Г. Структура научного исследования / И.Г. Герасимов. - Москва: Мысль, 1985.- 217 с.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada pedagogik muammo ta'lim-tarbiya tizimining yechilmagan qirralari masalasi ekanligi, tadqiqot muammosi va uni hal etilganlik darajasi haqida ma'lumotlar berilgan. Tanlangan muammoga oid mavzular shakllantirilishi haqida qayd etilgan. Pedagogik tadqiqotlarni o'rganish, o'qitish va ta'lim jarayonini tahlil qilish kabilar haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Bundan tashqari, tadqiqotning muammoli maydonini aniqlashtirib olish, muammoni identifikatsiyalash va aniqlashtirish, uning fan va amaliyot uchun dolzarbligini asoslash kabi ishlar bajarishi kerakligi haqida aytilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлена информация о том, что педагогическая проблема – это вопрос нерешенных аспектов системы образования, проблема исследования и уровень ее разрешения. Отмечается, что формируются темы, связанные с выбранной проблемой. Обзоры педагогических исследований, анализ процесса преподавания и обучения.

SUMMARY

This article provides information on the fact that the pedagogical problem is the issue of unresolved aspects of the educational system, the research problem and the level of its resolution. It is noted that topics related to the selected problem are formed. Reviews of pedagogical research studies, teaching and learning process analysis.